



Markaziy Osiyo mintaqasida transchegaraviy gidroresurslarni strategik boshqarish va suv diplomatiyasining geosiyosiy o'lchamlari

Baxriddinov B.A

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv resurslarini boshqarishning siyosiy-huquqiy mexanizmlarini tahlil qiladi. Amudaryo va Sirdaryo havzalari misolida suv diplomatiyasining geosiyosiy murakkabligi yoritilib, 2016 yildan keyin Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekistonning mintaqaviy suv hamkorligini rivojlantirish siyosati alohida ko'rib chiqiladi.

Tahlilning huquqiy asosini 1997 yilgi BMT Konvensiyasi va 1992 yilgi Xelsinki Konvensiyasi tamoyillari tashkil etadi. Shuningdek, iqlim o'zgarishi, Orol dengizi inqirozi hamda suv xavfsizligi masalalari baholanib, transchegaraviy suv resurslarini barqaror boshqarishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: suv diplomatiyasi, transchegaraviy gidroresurslar, Markaziy Osiyo geosiyosati, Amudaryo, Sirdaryo, suv xavfsizligi, barqaror rivojlanish, xalqaro suv huquqi.

Аннотация: В данном исследовании анализируются политико-правовые механизмы управления трансграничными водными ресурсами в Центральной Азии. Геополитическая сложность водной дипломатии подчеркивается на примере бассейнов Амударьи и Сырдарьи, а также отдельно рассматривается политика Узбекистана по развитию регионального водного сотрудничества после 2016 года, инициированная Шавкатом Мирзиёевым.

Правовой основой анализа являются принципы Конвенции ООН 1997 года и Хельсинкской конвенции 1992 года. В исследовании также рассматриваются вопросы изменения климата, кризиса Аральского моря и водной безопасности, а также разрабатываются практические рекомендации по устойчивому управлению трансграничными водными ресурсами.

Ключевые слова: водная дипломатия, трансграничные гидроресурсы, геополитика Центральной Азии, Амударья, Сырдарья, водная безопасность, адаптация к изменению климата, устойчивое развитие, международное водное право, кризис Аральского моря.

Abstract: This study analyzes the political and legal mechanisms of transboundary water resources management in Central Asia. The geopolitical complexity of water diplomacy is highlighted using the example of the Amu Darya and Syrdarya basins, and Uzbekistan's policy of developing regional water cooperation after 2016, initiated by Shavkat Mirziyoyev, is considered separately.

The legal basis of the analysis is the principles of the 1997 UN Convention and the 1992 Helsinki Convention. It also assesses climate change, the Aral Sea crisis, and water security issues, and develops practical recommendations for sustainable management of transboundary water resources.

Key words: water diplomacy, transboundary water resources, Central Asian geopolitics, Amu Darya, Syr Darya, water security, climate change adaptation, sustainable development, international water law, Aral Sea crisis.

Kirish. Tabiiy boyliklarning eng qimmatbahosi — suv — nafaqat insoniyat hayotini ta'minlovchi biologik zaruriyat, balki zamonaviy davlatlararo munosabatlarda strategik resurs maqomini tobora mustahkamlab borayotgan ko'p funksiyali geosiyosiy omil hisoblanadi. XXI asrning boshlariga kelib iqlim tizimlarining beqarorlashuvi, aholi sonining tez o'sishi va sanoat-agrar rivojlanishning kengayishi fonida suv tanqisligi muammosi milliy chegara doirasidan chiqib, mintaqaviy va global xavfsizlik tartib-intizomining markaziy mavzusiga aylandi. Ayniqsa bu tendensiya Markaziy Osiyo mintaqasida — O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston davlatlarini birlashtiruvchi ushbu geostrategik maydon — da namoyon bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mintaqadagi asosiy daryo tizimlari — Amudaryo va Sirdaryo — bir necha mamlakat hududini kesib o'tuvchi transchegaraviy oqimlar sifatida xalqaro huquqning murakkab ob'ektiga aylanadi. Ushbu ikki havzaning gidrologik muvozanati qirg'oqdosh davlatlarning milliy manfaatlarini tabiiy ziddiyatga kiritadi: yuqori havza davlatlari (Tojikiston, Qirg'iziston) gidroenergetika salohiyatini ustuvor deb hisoblasa, quyi havza davlatlari (O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston) sug'oriladigan qishloq xo'jaligi tizimlarini saqlashni birinchi o'ringa qo'yadi. Tahlillar ko'rsatadiki, bu tizimli qarama-qarshilik mintaqaviy diplomatiyaning eng kechiktirib bo'lmas muammosini vujudga keltiradi va uning hal etilishi sof texnologik echimlardan ancha chuqur — siyosiy-huquqiy, falsafiy va ijtimoiy-madaniy — yondashuvlarni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi ushbu murakkab sharoitda faol va konstruktiv diplomatik pozitsiyani izchil ravishda mustahkamlab bormoqda. 2016 yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan mintaqaviy siyosatning tub o'zgarishi — ishonch, sheriklik va o'zaro manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan suv hamkorligi yo'nalishida — nafaqat ikki tomonlama, balki ko'p tomonlama diplomatik munosabatlarga sifat jihatdan yangi impuls berdi. Bu siyosat, ehtimol, Markaziy Osiyodagi so'nggi o'n yilliklarning eng muhim diplomatik o'zgarishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Maqsad. Mazkur tadqiqotning ilmiy maqsadi Markaziy Osiyo mintaqasidagi transchegaraviy gidroresurlarni boshqarish tizimini falsafiy-analitik metodologiya asosida ko'p qatlamli tahlil qilishdan, mintaqaviy suv diplomatiyasining zamonaviy strategik ustuvorliklarini aniqlashdan va O'zbekiston Respublikasining xalqaro suv munosabatlaridagi geosiyosiy rolini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot quyidagi o'zaro bog'liq vazifalar majmuini hal etishga yo'naltirilgan: birinchidan, mintaqaviy suv munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy-normativ va institutsional asoslarni tizimli tahlil qilish; ikkinchidan, iqlim o'zgarishi va ekologik inqirozning suv xavfsizligiga ta'sirini miqdoriy va sifat jihatdan baholash; uchinchidan, xalqaro tajribadan saboqlar chiqarib, O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Materiallar va usullar. Tadqiqotda qo'llaniladigan metodologik majmua ko'p qatlamli yondashuv printsipiga asoslanadi. Tarixiy-qiyosiy tahlil usuli mintaqaviy suv munosabatlarining evolutsion dinamikasini aniqlashga, tizimli yondashuv esa

gidroresurs boshqaruvining o'zaro bog'liq elementlarini yaxlit ko'rishga xizmat qiladi. Huquqiy-normativ tahlil konvensiyalar va milliy qonunchilik hujjatlarining amaliy samaradorligini, geosiyosiy modellashtirish esa davlatlararo manfaatlar konfiguratsiyasini o'rganishga imkon beradi.

Birlamchi manba bazasini quyidagilar tashkil etadi: BMT Bosh Assambleyasining 1997 yilgi Transchegaraviy Suv Yo'llari Konvensiyasi; 1992 yilgi Xelsinki Suv Konvensiyasi; IFAS (Orol dengizini qutqarish xalqaro jamg'armasi) va ICWC (Markaziy Osiyo suv muvofiqlashtirish komissiyasi) hujjatlari; O'zbekiston Respublikasining suv qonunchiligi; Prezident Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqlari (2017–2023 yillar); FAO, UNDP va IPCC statistik ma'lumotlari; xalqaro ilmiy jurnallardagi empirik tadqiqotlar.

Natijalar va muhokama. Markaziy Osiyoda suv resurslarining asosiy qismi bir davlat hududida shakllanib, boshqa davlatlarda iste'mol qilinadi. Mazkur gidrologik nomutanosiblik suv munosabatlarini mintaqaviy xavfsizlik va siyosiy barqarorlik bilan chambarchas bog'liq masalaga aylantirgan. FAO ma'lumotlariga ko'ra, mintaqada yiliga o'rtacha 116 km³ chuchuk suv sarflanadi, bu esa global suv tanqisligi sharoitida yuqori xavf ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Amudaryo va Sirdaryo oqimlarining so'nggi yillarda qisqarib borayotgani suv diplomatiyasining strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Ilmiy tahlillar suv tanqisligi bevosita mojarolar manbai emasligini, samarali diplomatik mexanizmlar mavjud bo'lsa, u hamkorlik omiliga aylanishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, 1997 yilgi BMTning Transchegaraviy suv oqimlari Konvensiyasi hamda 1992 yilgi Xelsinki Konvensiyasi xalqaro suv huquqining asosiy normativ poydevori sifatida muhim o'rin tutadi. Ular adolatli foydalanish, zarar yetkazmaslik va o'zaro axborot almashish tamoyillarini mustahkamlagan bo'lsa-da, Markaziy Osiyoda ushbu hujjatlarning amaliy samaradorligi institutsional zaiflik va ratifikatsiya bilan bog'liq muammolar sabab to'liq namoyon bo'layotgani yo'q.

Mintaqaviy boshqaruv tizimida IFAS va ICWC kabi tuzilmalar muhim rol o'ynaydi, biroq ularning moliyaviy va ijro vakolatlari cheklangan. Ayniqsa, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv-energetika manfaatlarining qarama-qarshiligi muntazam siyosiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Qirg'izistonning gidroenergetika ehtiyojlari bilan O'zbekiston va boshqa davlatlarning sug'orish manfaatlari o'rtasidagi nomutanosiblik "suv-energetika dilemmasi"ni shakllantirgan.

Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari Markaziy Osiyo suv diplomatiyasida yangi bosqichni boshlab berdi. 2017 yilgi BMT Bosh Assambleyasidagi nutqda Orol dengizi muammosining global ekologik xavf sifatida talqin qilinishi xalqaro hamjamiyat e'tiborini kuchaytirdi. Keyingi yillarda O'zbekiston suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish va IFAS doirasidagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan islohotlarni faol amalga oshirmoqda.

Iqlim o'zgarishi mintaqaga uchun asosiy xavf omillaridan biri bo'lib qolmoqda. IPCC ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi 50 yil davomida Markaziy Osiyoda harorat 1,5°C ga oshgan, muzliklarning qisqarishi esa 2050 yilga borib suv oqimining sezilarli kamayishiga olib kelishi mumkin. Bu holat qishloq xo'jaligi, ichimlik suvi ta'minoti va iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, Orol dengizi inqirozi ekologik va ijtimoiy xavfsizlikning eng keskin muammolaridan biri sifatida saqlanib qolmoqda.

Qiyosiy tahlillar Yevropa Ittifoqining Su Doirasi Direktivi va Nil havzasi tashabbusi tajribasi Markaziy Osiyo uchun muhim metodologik asos bo'la olishini ko'rsatadi. Suv resurslarini boshqarish faqat iqtisodiy yoki texnik masala emas, balki axloqiy va ekologik mas'uliyat bilan bog'liq murakkab tizimdir. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi suv diplomatiyasining nazariy va amaliy poydevori bo'lib xizmat qilishi zarur.

Xulosa. Tahlillar Markaziy Osiyoda suv diplomatiyasi mintaqaviy xavfsizlikning strategik omiliga aylanganini ko'rsatadi. Mavjud huquqiy va institutsional mexanizmlar muayyan asos yaratgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi kuchli siyosiy iroda va amaliy hamkorlik bilan mustahkamlanishi talab etiladi.

Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan konstruktiv tashqi siyosat va O'zbekistonning IFAS doirasidagi faoliyati mintaqada ishonch hamda hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Biroq iqlim o'zgarishi va Orol dengizi inqirozi uzoq muddatli va tizimli choralarni talab qiladi.

Umuman olganda, Markaziy Osiyoda suv resurslarini samarali boshqarishning yagona muqobili — o'zaro hamkorlikdir. Suvni umumiy tabiiy boylik va kelajak avlodlar merosi sifatida anglash mintaqaviy suv diplomatiyasining asosiy tamoyiliga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations. Convention on the Law of the Non-Navigational Uses of International Watercourses. – New York: UN General Assembly Resolution 51/229, 1997. – 18 p.
2. Abdullaev I., Atabaeva S. Water sector in Central Asia: slow transformation and potential for cooperation // International Journal of Sustainable Society. – 2012. – Vol. 4, № 1–2. – P. 103–112.
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. – Nyu-York, 2017. – 12 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'lida qat'iyat bilan oldinga. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – 448 b.
5. Gleick P.H. Water and Conflict: Fresh Water Resources and International Security // International Security. – 1993. – Vol. 18, № 1. – P. 79–112.
6. Wolf A.T. Criteria for equitable allocations: The heart of international water conflict // Natural Resources Forum. – 1999. – Vol. 23, № 1. – P. 3–30.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 6 oktyabrdagi 618-son qarori "Suv tejash va suv xo'jaligini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to'g'risida". – T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 2021.
8. FAO. AQUASTAT Database – Central Asia Regional Water Assessment. – Rome: Food and Agriculture Organization, 2021. – 64 p.
9. UNDP. Water Security in Central Asia: Challenges and Opportunities. – Almaty: UNDP Regional Bureau for Europe and the CIS, 2021. – 112 p.
10. IPCC. Climate Change 2022: Impacts, Adaptation and Vulnerability. – Geneva: Intergovernmental Panel on Climate Change, 2022. – 3056 p.